# IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

**Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar**

2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 22,0 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 mingtaga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,7 birlikni tashkil qildi.

**Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar**

2023-yilning yanvar-dekabrida 6 247 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,6 % ga kupaygan.

**2020-2024-yillar 1-yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda**




**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o 'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

**2024-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi**



- **2023-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining tarmoqlar kesimida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari.**

sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 5 330,2 mlrd. so‘mni (28,3 foiz faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 634 tani tashkil etdi);

15 530,8 mlrd. so'mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 93,9 foizi) faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 206 tani tashkil etdi;

3 454,0 mlrd.so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 28,9 foizi) 2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 116,0 foizni tashkil etdi;

5 381,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 90,0 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 903 tani tashkil etdi);

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,9 foizga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 90,7 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 3,6 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 96,5 foizi) faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 981 tani tashkil etdi);

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 97,2 foizi yoki 10 955,6 mlrd. so‘m, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 51,4 foizi yoki 6 613,9 mlrd. so‘mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 7 564 ta

93,6 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 27,9 foizi) 117,9 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 57,4 foizidi) quradi .

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 58,7 foizni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga (55,8) nisbatan foizni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)**

**Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati**

***Hajmi, mlrd so‘mda***




***Ulushi, % da***




**Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati**

***Hajmi, mlrd so‘mda***




***Ulushi, % da***




**Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati**

***Hajmi, mlrd so‘mda***




***Ulushi, % da***



**Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari**
*(yanvar-dekabr oylarida)*
**Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati**

***Hajmi, mlrd so‘mda***




***Ulushi, % da***




**Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati**

***Hajmi, mlrd so‘mda***




***Ulushi, % da***




**Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati**

***Hajmi, mlrd so‘mda***




***Ulushi, % da***



**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining, har 1000 aholiga nisbati, birlikda)***




2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 13,7 birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 1,6 birlikka pasaygan.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari soninig har 1000 aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Nukus tumanida 22,3 birlik, Mo‘ynoq 20,6 birlik, Bo‘zatov 19,7 birlik, Qorao‘zak 18,9 birlik, Qonliko‘l 17,4 birlik, Taxtako‘pir 17,0 birlik, Nukus shahrida 16,6 birlik, Kegeyli 14,3 birlik, Shumanay 13,9 birlik, Ellikqal’a 12,8 birlik, To‘rtko‘l 12,7 birlik, Qo‘ng‘irot 12,1 birlik, Beruniy 12,0 birlik, Chimboy 11,7 birlik, Xo‘jayli 10,8 birlik, Amudaryo 10,7 birlik, va Taxiatosh 9,6 birlik, birlikka yetdi.

**2023 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi**



| | *Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m* | *Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida* |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 15 530,8 | 93,9 |
| Sanoat | 5 330,2 | 28,3 |
| Qurilish | 5 381,2 | 90,0 |
| Chakana savdo | 10 955,6 | 97,2 |
| Yuk tashish, *mlntn.* | 34,1 | 92,2 |
| Yo‘lovchi tashish, *mln.kishi* | 137,3 | 93,6 |
| Eksport, *mln. AQSh doll.* | 93,6 | 27,9 |
| Import, *mln. AQSh doll.* | 117,9 | 57,4 |

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi**
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*



2023-yil yanvar-dekabr oylarida 28 513 ta kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (24 006 ta) 118,7 foizni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| Savdo | 32,6 % |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 15,4 % |
| Sanoat | 16,9 % |
| Qurilish | 9,4 % |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 6,3 % |
| Tashish va saqlash | 4,3 % |
| Axborot va aloqa | 2,0 % |
| Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1,6 % |
| Boshqalar | 11,5 % |

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning savdo (32,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (15,4 %), sanoat (16,9 %), qurilish (9,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,3 %), tashish va saqlash (4,3 %) hamda axborot va aloqa (2,0 %) va sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,6 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

**2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi,** *% da*



**2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
*(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)*




**2023-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi**

Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (898,1 mlrd. so'm), Beruniy (651,3 mlrd. so'm), Amudaryo (543,0 mlrd. so'm), Xo'jayli (420,7 mlrd. so'm), Qorao'zak (376,1 mlrd. so'm), Ellikqal'a (353,4 mlrd. so'm), Qo'ng'irot (312,3 mlrd. so'm), Nukus tumani (311,4 mlrd. so'm); tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Bo'zatov tumanida (39,7 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2023-yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’atlari**




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Nukus shahri (2 917,2 mlrd. so‘m), To‘rtko‘l (1 516,8 mlrd. so‘m) va Xo‘jayli (1 020,4 mlrd. so‘m) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

**2023 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’atlari**




Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Bo‘zatov tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Beruniy ulushi (94,2 %), Xo‘jayli ulushi (93,3 %), Nukus tumanida ulushi (79,3 %), tumanlariga va eng past ulushi Taxiatosh tumani (6,0 %) to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo‘yicha jami xizmat ko‘rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Taxtako‘pir (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (81,5 %), Xo‘jayli (78,3 %), Qorao‘zak (78,3 %), Nukus tumani (78,1 %), Kegeyli (77,3 %), Mo‘ynoq (76,7 %), Shumanay (75,3 %), Chimboy (73,4 %), Qonliko‘l (73,0 %), Amudaryo (72,7 %), Ellikqal’a (70,7 %), tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

**Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini** muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

**Chakana savdo bu** – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat**.**

**Ulgurji savdo bu** – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

**Kichik va o'rta biznes_-** mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes sub'yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.